

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi

xalqaro instituti katta o'qituvchisi

Email: hoshimov140489@gmail.com

UDK 1(510):37.01

XITOY VA MARKAZIY OSIYO FALSAFIY MEROSIDA INSON

TARBIYASI G'OYALARINING MUSHTARAK JIHATLARI

***Annotatsiya.** Maqolada inson tarbiyasi masalasining mazmun-mohiyati Xitoy mutafakkiri Van Yanmin hamda Markaziy Osiyo mutafakkirlari g'oyalari bilan qiyosiy tahlil etiladi. Maqolada insonning ma'naviy kamolotini shakllantirishda aql, axloq va qalb uyg'unligining o'rni falsafiy-nazariy asoslarda ochib berilgan.*

***Kalit so'zlar.** Inson tarbiyasi, ma'naviyat, axloq, qalb, ong, bilim, falsafa, Yangi O'zbekiston.*

Хошимов Санжарбек Султонбекович

Старший преподаватель Международного

института пищевой технологии и инженерии

ОБЩИЕ ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ ЧЕЛОВЕКА В ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ НАСЛЕДИИ КИТАЯ И ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

***Аннотация:** В статье проводится сравнительный анализ сущности и содержания проблемы воспитания человека на основе идей китайского философа Ван Янмина и мыслителей Центральной Азии. Особое внимание уделено философско-теоретическим основаниям формирования духовного совершенства личности через гармонию разума, нравственности и сердца.*

***Ключевые слова:** воспитание человека, духовность, нравственность, сердце, сознание, знание, философия, Новый Узбекистан.*

Khoshimov Sanjarbek Sultonbekovich

Senior Lecturer at the International Institute

of Food Technology and Engineering

SHARED PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN EDUCATION IN THE INTELLECTUAL HERITAGE OF CHINA AND CENTRAL ASIA

Abstract: *The article presents a comparative analysis of the essence and content of the problem of human education based on the ideas of the Chinese philosopher Wang Yangming and the thinkers of Central Asia. Special attention is given to the philosophical and theoretical foundations for cultivating the spiritual perfection of an individual through the harmony of reason, morality, and heart.*

Keywords: *human education, spirituality, morality, heart, consciousness, knowledge, philosophy, New Uzbekistan.*

Kirish

Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida inson tarbiyasi masalasi doimo markaziy o'rinda bo'lib kelgan. Ayniqsa, Sharq falsafiy tafakkuri tarixida insonning ma'naviy-axloqiy kamoloti, uning ichki dunyosi va jamiyat bilan uyg'un munosabatlarini shakllantirish masalasi chuqur falsafiy mazmunda talqin etilgan. Xitoy va Markaziy Osiyo hududlarida vujudga kelgan boy falsafiy meros inson tarbiyasini nafaqat ijtimoiy zarurat, balki komil insonni voyaga yetkazishning asosiy sharti sifatida ko'radi.

Yurtimiz hayotida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, yangilanishlar va islohotlar faqat tashqi siyosiy-ijtimoiy mexanizmlar emas, balki chuqur falsafiy asosga ega bo'lgan hodisalardir. Bu jarayonlarni zamirida insonni ulug'lash, adolat tamoyili ustivorligini ta'minlash, davlat va jamiyat o'rtasida sog'lom munosabatlarni shakllantirishga intilish yotadi. Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida inson kapitalini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy uyg'onish jarayonlarini chuqurlashtirish masalasi davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan. Aynan mana shu jarayonlar bizni Sharq falsafasining qadimiy va zamonaviy talqinlariga, xususan, Farobiy, Ibn Sino, Navoiy singari ulug' allomalarning ezgu g'oyalariga hamda sharq uyg'onish markazlaridan bo'lmish Xitoy donishmandlari, jumladan, Van Yanmin g'oyalariga murojaat qilishga undaydi.

Adabiyotlar tahlili

Xitoy va Markaziy Osiyo falsafiy merosida inson tarbiyasi masalasiga oid qarashlar turli tarixiy davrlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning mazmun-mohiyati jihatidan mushtarak jihatlari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Mazkur

masala bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, asosan Sharq falsafasida axloq, ta'lim-tarbiya g'oyalarining shakllanishi hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni masalalarini qamrab oladi.

Xitoy falsafasiga oid tadqiqotlarda inson tarbiyasi masalasi, avvalo Konfutsiy ta'limotida, shuningdek, Men-szi va Syun-szi qarashlarida yanada rivolantirilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar Du Veyming¹, Feng Yulan², Chang Vinsit³ ularning g'oyalarini axloqiy-falsafiy tizim sifatida talqin qilib, unda inson tarbiyasi jamiyat barqarorligining muhim omili ekanini ta'kidlaydilar.

Xitoy falsafasida inson tarbiyasiga oid qarashlarning yangi bosqichi Van Yanmin ta'limoti bilan bog'liq. Uning "bilim va harakat birligi" hamda "ezgu fikr" haqidagi g'oyalari inson tarbiyasini axloqiy ong va amaliy faoliyatning uzviy birligi sifatida tushuntiradi. Van Yanmin qarashlari Sharq falsafasidagi gumanistik an'analar bilan bog'liq holda yoritiladi.

Markaziy Osiyo falsafiy merosiga oid adabiyotlarda esa inson tarbiyasi masalasi komil inson g'oyasi bilan chambarchas bog'liq tarzda talqin qilinadi. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida tarbiyani jamiyatni barkamol qilishning asosiy sharti sifatida ko'rsatadi. Ibn Sino asarlarida esa axloqiy tarbiya, ilm va aqlning ustivorligi inson kamolotining muhim mezon sifatida izohlanadi. Beruniyning ilmiy merosida esa bilim va axloq uyg'unligi inson tarbiyasining zarur sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlarda inson tarbiyasi masalasi ma'naviy komillik, axloqiy poklik va jamiyat oldidagi mas'uliyat nuqtai nazaridan yoritiladi. "Mahbub ul-qulub" va "Xamsa" asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalar ko'plab adabiyotshunos va faylasuf olimlar tomonidan tahlil qilinib, Navoiyning komil inson haqidagi qarashlari Sharq falsafiy tafakkurining yuksak namunasi sifatida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Xitoy va Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida inson tarbiyasi g'oyalarining mushtarak jihatlarini aniqlash va ilmiy asosda tahlil qilish uchun bir

¹ Tu Wei-ming. *Humanity and Self-Cultivation: Essays in Confucian Thought*. Berkeley, 1979. P.162.

² Фэн Юлань. *История китайской философии*. Т. 1-2. Шанхай, 1935. P.968.

³ Chan Wing-tsit (tr.). *A Source Book in Chinese Philosophy*. Princeton, 1963 (reprint - L., 1969).P. 654-658.

nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida avvalo tarixiy-falsafiy tamoyillarga e'tibor qaratildi. Ushbu yondashuv orqali mutafakkirlarning inson tarbiyasi haqidagi qarashlari ularning yashagan davrlari, ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy qadriyatlar va ma'naviy an'analar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganildi. Natijada g'oyalarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tadrijiy jarayon sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-komporativ tahlil usuli muhim o'rin egalladi. Mazkur usul yordamida Xitoy va Markaziy Osiyo mutafakkilarining inson kamoloti, axloqiy tarbiya va ma'naviy yetuklik haqidagi qarashlari o'zaro solishtirildi. Buning natijasida umumiy konseptual asoslar, metodologik tamoyillar, hamda farqli jihatlar aniqlanib, ularning falsafiy mohiyati ochib berildi.

Maqolada inson tarbiyasi masalasi alohida g'oya sifatida emas, balki, axloq, bilim, ma'naviyat, ijtimoiy mas'uliyat va komillik tushunchalari bilan uzviy bog'liq yaxlit konsptual tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu esa inson kamoloti haqidagi qarashlarning o'zaro aloqadorligini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar va ularning tahlili

Inson tarbiyasi masalasi falsafaning eng qadimiy va doimiy mavzularidan biridir. Har bir jamiyatning ma'naviy poydevori, uning a'zolari qanday tarbiya olganiga bog'liq. Sharq falsafasida asrlar davomida inson mohiyati, uning ma'naviy kamoloti va axloqiy tarbiyasi haqida chuqur mushohadalar olib borilgan. Bu yo'nalishda Xitoy mutafakkiri Van Yanmin (1472–1529)ning qalb haqidagi g'oyalari hamda Markaziy Osiyo allomalari — Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiyning inson haqidagi falsafiy qarashlari o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi.

Xitoy mutafakkiri Van Yanmin “Agar inson o'z qalbini poklasa, u olamni ham poklaydi” – deb ta'kidlab o'tadi⁴. Bu g'oya inson tarbiyasining ichki manbaini, ya'ni qalb va aql uyg'unligini asosiy o'ringa qo'yadi. Unga ko'ra, insonning axloqiy komilligi tashqi ta'sirlar orqali emas, balki insonning ichki uyg'unishidan boshlanadi.

⁴ Санжарбек Султонбекович Хошимов ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ // Academic research in educational sciences. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/van-yan-min-falsafiy-talimotining-manaviy-ahlo-iy-va-gnoseologik-irralari>

Bu jihatdan Van Yanmin falsafasi insonning o'zini anglashi, o'z ustida ishlashi va ma'naviy mukammallikka intilish yo'lini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ilmiy merosida ham inson tarbiyasi masalasi markaziy o'rinni egallaydi. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida insonni fazilatli jamiyatning poydevori deb biladi. Unga ko'ra, haqiqiy baxtga erishish uchun inson aqliy va axloqiy jihatdan mukammal bo'lmog'i lozim⁵. Ibn Sino esa "Donishnoma" asarida tarbiyani inson aqliy kamolotining muhim bosqichi sifatida izohlaydi. Uning fikricha, inson o'z tabiatida ilmga moyil, ammo bu moyillik to'g'ri tarbiya bilan shakllanadi va yo'naltiriladi⁶. Alisher Navoiy esa "komil inson" konsepsiyasini ilgari surib, tarbiyani ma'naviyat, axloq va go'zallik bilan uyg'un holda talqin etadi. Unga ko'ra, inson tarbiyasi — bu nafaqat aqlni, balki qalbni ham poklash jarayonidir⁷. Ushbu mutafakkirlarning falsafiy qarashlari o'rtasidagi g'oyaviy yaqinlik va falsafiy uyg'unlik "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasini ilgari surishda ham muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Van Yanminning falsafiy ta'limotida "bilim va harakat birligi" ta'limoti asosiy ta'limotlardan biridir. Ushbu ta'limotga ko'ra, haqiqiy bilim — bu amaliy faoliyat bilan uyg'unlashgan, axloqiy natija beruvchi bilimdir. Bu fikr Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlari bilan ham hamohangdir. Masalan, Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida inson aqliy va axloqiy barkamollik orqali fazilatli jamiyat qurishga qodir mavjudot sifatida ta'riflanadi. Farobiyning fikricha "Inson o'z tabiatiga ko'ra ilmga chanqoqdir, ammo uni mukammal qiluvchi narsa — tarbiyadir"⁸. Bu fikrdagi bilim va tarbiyaning ajralmas ekanligi haqidagi qarash Van Yanminning "bilim va harakat birligi" g'oyasini aynan o'zidir.

Ibn Sino ham tarbiya masalasiga chuqur falsafiy yondashgan. U "Donishnoma" asarida inson aqlini nurlantirish uchun tarbiya zarurligini ta'kidlaydi, Mutafakkir

⁵ Xoshimov S. ABU NASR FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QARASHLARI // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-ta-lim-tarbiya-berishga-oid-pedagogik-va-psixologik-qarashlari>

⁶ Ibn Sino. Donishnoma. Toshkent, 2018.

⁷ Xoshimov S.S. INSON TUSHUNCHASINING G'ARB VA SHARQ FALSAFASIDAGI GNOSEOLOGIK TAHLILI // Экономика и социум. 2024. №5-1 (120). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-tushunchasining-g-arb-va-sharq-falsafasidagi-gnoseologik-tahlili>

⁸ Xoshimov S. ABU NASR FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QARASHLARI // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-ta-lim-tarbiya-berishga-oid-pedagogik-va-psixologik-qarashlari>

“Aqlning quvvati to‘g‘ri yo‘l bilan tarbiyalansa, u haqni yolg‘ondan ajratadi”, — deb ta‘kidlaydi⁹. Ibn Sino uchun tarbiya nafaqat bilim berish jarayoni, balki insonni axloqiy jihatdan kamolga yetkazish vositasidir. Bu qarash Van Yanmin falsafasidagi “axloqiy ong” tushunchasiga juda yaqindir. Van Yanmin uchun bilim egallashning maqsadi — inson o‘z-o‘zini anglashi va o‘zini isloh etishidir. Demak, har ikkala mutafakkir fikricha, inson tarbiyasi faqat tashqi muhit ta‘siri emas, balki ichki o‘zgarish, ma‘naviy o‘sish jarayonidir.

Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida inson tarbiyasi borasida chuqur falsafiy g‘oyalarni ilgari suradi. Navoiy fikricha, komil inson bo‘lish uchun inson o‘z nafsini jilovlashi, qalbini pok saqlashi lozim. Navoiy shunday yozadi: “Nafsning qulidan inson chiqmas, qalbni poklagandagina insonlik nuri zohir bo‘lur”¹⁰. Bu fikr Van Yanminning qalb ta‘limoti markazidagi inson tarbiyasi haqidagi qarashlari bilan bevosita uyg‘unlikda ekanligini namoyon qiladi. Har ikki mutafakkir ham insonni faqat tashqi intizom bilan emas, balki ichki uyg‘onish orqali komillikka yetkazish mumkin, degan xulosaga keladi.

Ko‘rinib turibdiki, Van Yanminning inson qalbi haqidagi g‘oyalari va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining komil inson haqidagi g‘oyalari o‘zaro falsafiy uyg‘unlikni namoyon etadi. Ularning har ikkisi ham insonni jamiyatning markaziga qo‘yadi. Van Yanmin insonni davlat va jamiyatning asosiy axloqiy kuchi deb bilgan bo‘lsa, Forobiy fazilatli jamiyatni aynan tarbiyalangan insonlar jamiyati sifatida ko‘radi. Bu jihatdan ularning qarashlari Yangi O‘zbekiston g‘oyalariga hamohangdir, chunki hozirgi islohotlarning markazida ham inson omili — ma‘naviy yetuklik turadi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim mezon — bu yangi tafakkurdagi insonni tarbiyalashdir”¹¹. Mazkur fikr mutafakkirlarning insonni tarbiyalash orqali jamiyatni isloh etish mumkin degan fikrlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Agar xitoylik mutafakkir Van Yanmin insonni ichki axloqiy ong orqali komillikka yetkazishni nazarda tutgan bo‘lsa, Markaziy Osiyo mutafakkirlari bu

⁹ Ibn Sino. Donishnoma. Toshkent, 2018.

¹⁰ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent, 2019.

¹¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. —Toshkent: O‘zbekiston, 2022. B.49.

yo'lni ilm, ma'rifat va ruhiy tarbiya bilan bog'laydi. Har ikki ta'limotda ham inson o'z taqdirining faol yaratuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan Sharq falsafasining asosiy mohiyati — insonni axloqiy barkamollikka olib boruvchi ichki kuchni uyg'otishdir. Van Yanmin "Axloqiy ong inson qalbining tabiiy nuri, uni yoqish tarbiyaning vazifasidir" – deb ta'kidlaydi¹². Bu fikr bugungi ta'lim-tarbiya jarayonlaida ham o'z ifodasini topadi. Inson tarbiyasining falsafiy mohiyati shundaki, u tashqi nazorat emas, balki ichki uyg'onish, ongli o'zgarish orqali shakllanadi.

Van Yanmin va Markaziy Osiyo mutafakkirlarining inson tarbiyasi haqidagi qarashlarining umumiy maqsadi — insonning axloqiy mukammallikka erishishi va jamiyatda adolatni qaror toptirish ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Van Yanmin ta'limotida tarbiya jarayoni qalbni poklashga qaratilgan bo'lsa, Markaziy Osiyo mutafakkirlarida u nafsni jilovlash, ilm va fazilatni uyg'unlashtirish bilan izohlanadi. Forobiy va Van Yanmin fikrlarida fazilatli inson jamiyat barqarorligining asosiy omili sifatida ko'riladi. Ibn Sino va Van Yanmin qarashlari o'rtasida esa ilm va amaliyot birligiga e'tibor jihatidan o'xshashlik mavjud. Navoiy va Van Yanmin ta'limotlarida inson qalbini poklash va ma'naviy uyg'onish g'oyasi markaziy o'rin egallaydi.

Ushbu mutafakkirlarning qarashlari insonni faqat ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki ma'naviy olam sifatida anglash zarurligini tushuntiradi. Ularning falsafasi insonni o'z qalbi bilan suhbat qurishga, axloqiy javobgarlikni his etishga va o'z hayotini ma'noli yo'lga burishga da'vat etadi. Bu qarashlar zamonaviy O'zbekistonning ma'naviy siyosati, inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasi va ta'lim islohotlari bilan hamohangdir. Inson tarbiyasi masalasi — bu faqat pedagogik jarayon emas, balki insonning o'zlikni anglashi, axloqiy tanlov va ma'naviy erkinlik yo'lidir.

Inson tarbiyasi haqidagi ushbu qarashlar umumiy Sharq falsafasining ikki yirik oqimining mushtarak nuqtasi hamda umumiy ma'naviy yo'nalishini ifodalaydi. Ularni bog'lab turgan asosiy g'oya inson qalbining tarbiyasi, aql va vijdon birligi, axloqiy kamolotga intilishidir. Bugungi kunda bu qadriyatlar Yangi O'zbekistonning

¹² Sultanbekovich, H. S. . (2023). The Philosophy of Human in the Doctrine of Wang Yang Ming. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 194–197. <https://doi.org/10.51699/cajipc.v4i6.920>

ijtimoiy-ma'naviy hayotida yangi mazmun kasb etmoqda hamda zamonaviy insonni shakllantirishda muhim falsafiy poydevor bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Xitoy va Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri o'rtasidagi umumiyliklar, xususan, axloqiy kamolga intilish, bilim va harakat birligi, shaxs va jamiyat uyg'unligi masalalari alohida ta'kidlanadi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda bu ikki mintaqa falsafiy merosini qiyosiy o'rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ma'naviy tarbiya konsepsiyalarini boyitish nuqtayi nazaridan ham muhim ekani qayd etilmoqda.

Inson tarbiyasi haqidagi ushbu qarashlar umumiy Sharq falsafasining ikki yirik oqimining mushtarak nuqtasi hamda umumiy ma'naviy yo'nalishini ifodalaydi. Ularni bog'lab turgan asosiy g'oya inson qalbining tarbiyasi, aql va vijdon birligi, axloqiy kamolotga intilishidir. Bugungi kunda bu qadriyatlar Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotida yangi mazmun kasb etmoqda hamda zamonaviy insonni shakllantirishda muhim falsafiy poydevor bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tu Wei-ming. Humanity and Self-Cultivation: Essays in Confucian Thought. Berkeley, 1979. P.162.
2. Фэн Юлань. История китайской философии. Т. 1-2. Шанхай, 1935. P.968.
3. Chan Wing-tsit (tr.). A Source Book in Chinese Philosophy. Princeton, 1963 (reprint - L., 1969).P. 654-658.
4. Санжарбек Султонбекович Хошимов ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ // Academic research in educational sciences. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/van-yan-min-falsafiy-talimotining-manaviy-ahlo-iy-va-gnoseologik-irralari>
5. Xoshimov S. ABU NASR FOROBIYNING TA'LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QARASHLARI // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-ta-lim-tarbiya-berishga-oid-pedagogik-va-psixologik-qarashlari>

6. Ibn Sino. Donishnoma. Toshkent, 2018.
7. Xoshimov S.S. INSON TUSHUNCHASINING G‘ARB VA SHARQ FALSAFASIDAGI GNOSEOLOGIK TAHLILI // Экономика и социум. 2024. №5-1 (120). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inson-tushunchasining-g-arb-va-sharq-falsafasidagi-gnoseologik-tahlili>
8. Xoshimov S. ABU NASR FOROBIYNING TA’LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK QARASHLARI // Экономика и социум. 2021. №12-1 (91). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-ta-lim-tarbiya-berishga-oid-pedagogik-va-psixologik-qarashlari>
9. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent, 2019.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2022. B.49.
11. Sultanbekovich, H. S. . (2023). The Philosophy of Human in the Doctrine of Wang Yang Ming. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(6), 194–197. <https://doi.org/10.51699/cajlpс.v4i6.920>